



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AKTNING AHAMIYATI

**Eshmurodova Shahnoza-** Shahrисабз davlat pedagogika institute talabasi

**Qamariddinova Gulzor-** Shahrисабз davlat pedagogika institute talabasi

**Shahnoza Umarova Xolmurod qizi** –Shahrисабз davlat pedagogika instituti, matematika o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchisi

E-mail: [shaxnozau22@gmail.com](mailto:shaxnozau22@gmail.com)

ORCID raqami:0009-0002-8686-088X

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematik savodxonligini rivojlantirish darslarini AKT asosida tashkil qilishning samarasi, qo'llash usullari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika faniga qiziqtirish, o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtirishlari hamda matematik bilmlarini yanada rivojlantirish maqsadida, tafakkurini rivojlantiruvchi texnologiyalar “Kreativlik” 4K modeli, Kahoot, Google Clacroom, ispring Quiz Maker dasturlarini boshlang'ich sinflarda tatbiq etilishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotning o'ziga xos jihatlari haqida ilk tasavvurlarini va axborot madaniyatini shakllantirish, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini oshirish darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilar motivatsiyasini oshirish metodikasi va o'qitish mazmunini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish matematika darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash natijasida yuqori natijalarga erishish yo'llari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** "Kahoot!", masofaviy ta'lif, elektron darsliklar, onlayn ta'lif, "Zoom", "ispring Quiz Maker, 4K model, matematik savodxonlik, Google Clacroom".

**Annotation:** Math in elementariy grades in this article to organize literacy development classes on the basis of ICT effect, methods of application, mathematics of elementary students interest in Science, good assimilation of



educational materials, as well as in order to further develop mathematical knowledge, consider developing technologies “Creativity” 4K model,Kahoot, Google Implement Clacroom, iSpring Quiz Maker programs in elementary grades be. Specific aspects of information in primary school students first visions and Information Culture about shaping is also the math of elementary school students from innovative technologies in literacy lessons usability,methodology and teaching to increase student motivation improving content and improving efficiency in mathematics high as a result of the widespread use of new pedagogical technologies in his classes ways to achieve results are highlighted.

**Keywords:** "Kahoot!", distance learning, e-textbooks, online education, "Zoom", "iSpring Quiz Maker, 4K model, mathematical literacy, Google Clacroom".

**Аннотация:** В данной статье рассматривается эффект от организации занятий по развитию математической грамотности в начальных классах на основе ИКТ, методы их применения, с целью заинтересовать младших школьников математикой, хорошо усвоить учебный материал и в дальнейшем развивать свои математические знания. Внедрение развивающих технологий Модель 4К «Творчество», программы Kahoot, Google Clacroom, ispring Quiz Maker в начальных классах. Формирование первых представлений учащихся начальных классов о конкретных аспектах информации и информационной культуры, а также элементарных способах достижения высоких результатов. Результате широкого применения новых педагогических технологий на уроках математики, применения инновационных технологий на занятиях повышения математической грамотности учащихся, методики повышения мотивации учащихся, совершенствования содержания обучения и повышения его эффективность.



**Ключевые слова:** «Kahoot!», дистанционное образование, электронные учебники, онлайн-обучение, «Zoom», «ispring Quiz Maker», модель 4K, математическая грамотность, Google Classroom».

**“Matematika-fanlar malikası”**

**Karl Gauss.**

**“Avval matematika,keyin hammasi...”**

**Matematika fanini yaxshi bilgan bola aqlli,keng tafakkurli bo'lib o'sadi istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab keta oladi.**

**Shavkat Mirziyoyev.**

Insoniyat umri davomida ko'pgina asosiy o'rinni egallaydigan fanlar qatoriga matematika fani ham kiradi. Matematika fani bir qarashda murakkab, agar uni qunt bilan o'rganilsa anchayin qiziqarli va deyarli murakkab bo'limgan fan. Murakkab tushunchasi qachon ishlatiladi, qachonki u yaxshi tushunilmasa.

Bugungi axborot texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda har bir yosh avlodni komil, barkamol, yuksak ma'niyatli shaxs sifatida tarbiyalash bosh maqsadimizdir. Buning uchun o'quvchilarni har tomonlama yetuk, salohiyatli, bilimdon, keng tafakkurli qilib tarbiyalash lozim. Bunda matematikaning ahamiyati kattadir. Bu haqida prizidentimiz Sh. Mirziyoyev ham matematikani yaxshi bilgan bola har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borishini ta'kidlab o'tgan.

Har bir dars jarayonini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida tashkillashtirish ta'lif beruvchi pedagogdan juda katta ma'suliyatni talab etadi. Ta'lif berish jarayonida ta'lif metod va vositalarini tanlash va amalga oshirishda ta'lifning didaktik maqsad va vazifalari, zaruriy shart-sharoitlar, ta'lif oluvchilarning imkoniyatlari va ularning soni, mashg'ulotlarning davomiyligi,



ta’lim beruvchining mahoratiga ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatlariga tayangan holda, ta’limning metodi va vositalari bir-birini to‘ldirib borgandagi amalga oshirilgan ta’lim tizimi samaradorlikka erishishi va kutilgan natijani berishi mumkin.

Boshlang’ich sinflarda matematik savodxonlikni rivojlantirishda AKT ning o’rni kattadir. Bunda biz AKT ning har bir vositasini dars mavzusi, maqsadiga moslashtirish bilan bir qatorda o’quvchilarning yoshiga, qiziqishlariga ham katta ahamiyat berishimiz muhimdir. O’quvchilarni AKT dan faqat foydali ijobiy maqsadlarda foydalanishni o’rgatishimiz zarur. Ularni kreativlikka, tanqidiy fikrlashga yo’naltirish darkor. Shu kabi maqsadlarni amalga oshirishda boshlang’ich sinf o’qituvchisi darsni puxta rejalashtirishi zarur. Chunki sinf doskasi va AKT vositalaridagi ma’lumotlar uzviy, biri ikkinchisini to’ldiruvchi bo’lishi zarur. Shunga qarab o’qituvchi darsining qaysi qismlarida qo’llashni, vaqtini inobatga olishi maqsadga muvofiq. ”Kahoot!”, ”Zoom”, ”iSpring QuizMaker” va mobil ilovalar. Ushbu innovatsion texnologiyalardan foydalanish oldimizga qo’yilgan vazifalarni bajarib, o’z maqsadimiz – o’quvchilarni motivatsiyasini rivojlantirib, o’quvchi va o’qituvchining o’zaro muloqotini ta’minlashga erishamiz, shuningdek, barcha o’quvchilarni nazorat qilib, baholab, ular bilan darslarni samarali tashkil etishni ta’minlaymiz. Masalan **Kahoot!** o’yinga asoslangan o’quv platformasi bo’lib, maktablar va boshqa ta’lim muassasalarida ta’lim texnologiyasi sifatida foydalaniladi. Uning o’quv o’yinlari “kahoots” foydalanuvchi tomonidan yaratilgan tanlovli viktorina, testlar shaklida bo’lishi mumkin.

Boshlang’ich sinflarda buni qanday qo’llash mumkin Kahot! Ijtimoiy ta’lim uchun mo’ljallangan bo’lib, o’quvchilar interfaol doska, proektor yoki kompyuter, monitor kabi umumiylar ekran atrofida to’plangan, saytdan Skype, zoom yoki Google Hangouts kabi ekran almashish vositalari orqali foydalanish mumkin. O’yin dizayn shundayki, o’yinchilar o’z dizaynga tez-tez qarash kerak. O’yin jarayoni oddiy,



barcha o'yinchilar umumiyligida ekranda ko'rsatilgan yaratilgan o'yin pin kodi yordamida ulanadi va o'qituvchi, biznes rejali yoki boshqa shaxs tomonidan yaratilgan savollarga javob berish uchun qurilmadan foydalaniladi. Bu savollar mukofot ballarga o'zgartirilishi mumkin.

Kahot! veb-brauzer orqali yoki mobil qurilmalardagi ilovada o'ynash mumkin. Buni boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'yin darslarida, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida foydalanishi maqsadga muvofiqli. Bu o'quvchilarda qiziqish uyg'otib, faollikka undaydi va motivatsiya uyg'otadi.

Elektron axborot ta'lif resurslari ichiga kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring Quiz Maker dasturini kiritish mumkin. iSpring Quiz Makerning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish imkoniyati;
- ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri.
- ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlar.
- bir nechta to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari.
- ochiq test topshiriqlari.
- o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan test topshiriqlari.
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni.

Bunda o'qituvchi nazorat ishlarini, mustaqil ishlarni, masofaviy ta'lifni tashkil etishda foydalanish mumkin. Google Classroom-Google tomonidan ta'lif muassassalari uchun ishlab chiqilgan bepul aralash o'quv platformasi bo'lib, topshiriqlarni yaratish, tarqatish va baholashni soddalashtirishga qaratilgan. Google Classroomning asosiy maqsadi o'qituvchilar va talabalar o'rtasida fayllar almashish jarayonini soddalashtirishdir. AKT dan o'z o'rniда samarali foydalanilsa



maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikamizda ham 2023-yildan boshlab 1-sinf o'quvchilariga "Informatika" fan sifatida o'tilyapti. Bularning hammasi o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan yutuk shaxs sifatida kamol toptirish uchun joriy etilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish" J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov . Toshkent. Fan va texnologiya-2008.
2. "O'quvchi shaxsi, ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari" U.K.Tolipov, Sh.S.Sharipov.Toshkent-2012.
3. S.Q.Qahhorov, U.H.Hayitov "Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion texnologiyalar" Buxoro – 2022.
4. Jumayev M.E,Tadjiyeva Z "Boshlang'ich siniflarda matematika o'qitish metodikasi"- Toshkent:Fan va texnologiya.
5. Nishonov J. Umarova Sh. "Differensial tenglama fanini o'qitishda dasturlash tillaridan foydalanib o'qitish" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya
6. "Примеры свойств линейных непрерывных функционалов в C(E)" III. Умарова-Kesh ziysi, 2024
7. "Umumlashgan funksiyalar fazosi tasnifi" Umarova Sh "Matematikaning zamonaviy masalalari: muammo va yechimlari" respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari
8. "Regulyar umumlashgan funksiyalarning tasnifi" Umarova Sh " Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqollari" konferensiya
9. "Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonliklarini rivojlantirishda yangicha yondas huv" Qo'ziyeva Muqaddam Abdusattorovna
- 10."Boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab masalalar yechishga o'rgatishda o'lchov birliklarini ahamiyati"-Qodirova Manzura Sobir qizi.